
SEKTOR RAHBARLARI DEHQON BOZORIDA

Pandemiya davrida aholini arzonlashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash kunimizning asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Shu maqsadda Qo'shtepa tumanida sektor rahbarlari tomonidan bozorlarda narx-navoning sun'iy ravishda oshib ketishini oldini olish bo'yicha o'rganish ishlari olib borilmoqda.



Bugun tuman prokurori, 2-sektor rahbari M.Shomurodov va tuman IIB boshlig'i, 3-sektor rahbari S.Abdullayevlar "Dehqon bozori"da bo'lib, bozor rastalaridagi narx-navo va sotuvchi-xaridorlarga yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar.



Sektor rahbarlari tomonidan mutasaddilarga bozorda narx-navoning sun'iy ravishda oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik va uni oldini olish bo'yicha kerakli ko'rsatmalar berildi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2020-12-24 16:39:46